

YURTIMIZDA SAN'AT VA MADANIYATNING RIVOJI

Rajabov Abbos Baxtiyorovich

Qarshi shaxri 1-son BMSM maktabi skripka bo'lim boshlig'i skripka o'qituvchisi

Po'latov Xurshid Ravshan o'g'li

Qarshi shaxar 1-son BMSM maktabi gitara o'qituvchisi va bo'lim boshligi

Tursunov Suhrob Toshtemirovich

Qarshi shaxar 1-son BMSM maktabi bo'limi o'qituvchisi

Xikmatov Jobir Javlonovich

Qarshi shaxar 1-son BMSM maktabi amaliy san'at bo'limi o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xalqning boy madaniy meroslari bo'lmish san'at va madaniyat haqida hamda uning yurtimizdagi rivoji borasida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Xalq, madaniy meros, madaniyat, san'at, kuy-qo'shiq, joziba, markaz, qaror, tanlov.*

O'zbek xalqining faqat o'zigagina xos boy madaniy merosi borki, u o'z jozibasi bilan kurrai zamin ahlini o'ziga rom etib kelmoqda. Bu jahoniy e'tirof davlatimiz rahbari tomonidan soha taraqqiyotiga qaratilayotgan katta e'tibor, g'amxo'rlikning mevasi desak yanglishmagan bo'lamiz.

“Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-112-sonli Prezident qarori yoshlarni madaniyat markazlariga jalb etish, tanlovlar, festivallar o'tkazish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash, aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomoshha tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llabquvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish, musiqa fani uchun ajratilgan o'quv soatlari doirasida “Hayotimga hamrohdir cholg'u” shiori ostida cholg'u ijrochiligi dars mashg'ulotlari yo'lga qo'yilishi, o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning qiziqishlariga ko'ra milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish mahorati, tasviriy va amaliy san'at, hunarmandchilik yo'nalishlarida amaliy to'garaklar tashkil etilishi kabi bir qator vazifalar maqsad qilingan. Yurtimizda madaniyat va san'at ravnaqi yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida aks etgan ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor choratadbirlarga nihoyatda hamohangdir. Mazkur islohotlar ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari” g'oyasining hayotiy ro'yobiga, “Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirishga hissa qo'shadi deb ayta

olamiz. Har bir millat o'z madaniyat va san'atining qudrati bilan jahon tamaddunidan mustahkam joy egallaydi. Aynan mazkur soha taraqqiyoti mamlakatning kuch va salohiyatini, xalqning qadr qimmatini, dunyodagi obro'-e'tibori hamda maqomini namoyon etuvchi muhim omillardan biri sanaladi.

Birinchi Prezidentimiz san'at va madaniyat sohasi xodimlari zimmasiga yuklagan ma'suliyati juda o'rinlidir. Chunki bugungi kunda san'at va madaniyat sohasini rivolantirish va uni to'g'ri tashkil etib boshqarib borish juda muhim ahamiyatga egadir. Prezidentimiz Islom Karimov yuqoridagi fikrlarini isboti tariqasida yana estrada san'atining mohiyatiga to'xtaladi. "Nega deganda, agar insonning qulog'i yingil-yelpi, tumtaroq ohanglarga o'rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma'naviy olamini sohta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Ohir-oqibatda bunday odam «Shoshmaqom» singari milliy me'rosimizning noyob durdonalarini ham, Mosart, Bethoven, Bah va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo'ladi". Bunday holatlarning oldini olish uchun san'atkorlar orasida sog'lom ijodiy muhit tashkil qilish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlarimizning milliy va jahon musiqa madaniyatining mumtoz asarlari bilan birga, ularning kayfiyati va intilishlariga mos keladigan zamonaviy estrada san'ati namunalaridan keng bahramand bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish musiqiy ta'limni yanada rivojlantirish masalalari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. San'at va madaniyat sohasini rivojlantirishda ijtimoiy boshqaruv mexanizmlarini tahlil etishdan maqsad talabalarda boshqarish muammolariga qiziqish uyg'otish, amaliy tashkilotchilik faoliyatiga ishtiyoq tug'dirishdir. Chunki hozir boshqarish asoslarini va bozor ko'nikmalarini o'rganayotgan talabalar kelgusida boshqarish tizimining xodimlari, kichik va o'rta, katta jamoalarning rahbarlari, ijtimoiy, tashkiliy-texnik faoliyatning turli sohasini boshqarish bo'yicha loyihalar, tadbirlar ishlab chiquvchilar bo'lib yetishadilar. Boshqarish tizimini takomillashtirish va san'at sohasida har xil tadbirlar ishlab chiqish ham ularning zimmasiga tushadi.

Mustaqillik tufayli badiiy ijodiyot, badiiy adabiyot sinfiylik, partiyaviylik, kommunistik mafkuraviylik kabi aqida hukmronligidan, illatlardan ozod bo'ldi. Badiiy adabiyotda milliylik, mingyillik tarixiy ijodiy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar, erkin fikr yuritish tamoyillari tiklandi. Ijodiy faoliyatda mustaqillikni asrab-avaylash, demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish, har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash, yurtdoshlarimiz ongida milliy istiqlol g'oyalarini shakllantirish kabi masalalar bosh mavzu sifatida o'rin egalladi. Jadidchilik harakati namoyandalarining, sovet davrida qatag'on qilingan millatparvar yozuvchi va shoirlarning asarlari, Qur'on va hadislar nashr etildi va keng kitobxonlarga yetib bordi. Milliy adabiyot rivojiga H. S. Karomatovning "Qur'on va o'zbek adabiyoti", O. Sharafiddinovning "Cho'lponni anglash", B. Qosimovning "Maslakdoshlar" asarlari ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Xurshid Davron, O'ra Mirzo kabi ijodkorlarimizning tarixiy roman, pyesa va qissalarida ulug' bobokalonlarimiz, sohibqiron

Amir Òemur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa buyuk zotlar siymolari yangicha badiiy-falsafiy nuqtayi nazardan yoritildi. Shukrulloning "Kafansiz ko'milganlar" romanida, To'lepbergen Qayipbergenovning "U dunyoga, bobomga xat" asarida, Nazar Eshonqulovning "Qora kitob" povestida, O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanida, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Qasoskorning oltin boshi" romanida, Oygul Muhammad qizining "Jannat qushi" romanida, Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida mustabid sovet davrida yuritilgan shovinistik siyosatning qatag'onlik, zo'ravonlikka asoslangan mohiyati, xalq boshiga solingan tashvish-u kulfatlar, g'am-g'ussa alamlari tasvirlangan. Tohir Malikning "Shaytanat" (4 kitob), Hojiakbar Shayxovning "Tutasholamlar" asarlarida insonni iymon va vijdondan ozdirishga, razolat va qabohat ummoniga botirishga urinuvchi yomonlik dunyosi, mafiya olami shaytonlari fosh qilinadi, ularga nisbatan nafratlanish tuyg'ulari o'z aksini topgan. Omon Muxtorning "To'rt tomon qibla" nomli trilogiyasi, Barat Boyqobulovning "O'zbeknoma" tarixiy-falsafiy va ma'naviy-ma'rifiy dostoni, Abduqahhor Ibrohimovning "Biz kim, o'zbeklar" asari, Azim Suyunning "Oq va qora", A. Qutbiddinning "Izohsiz lug'at" she'rlari zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin ifodasidir. O'zbekiston Prezidenti, respublika hukumati ijod ahliga katta g'amxo'rlik qilmoqda. Iste'dodli adiblar faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlanmoqda.

Abdulla Oripov, Said Ahmad, Erkin Vohidov, Ozod Sharafiddinov, To'lepbergen Qayipbergenovlar mamlakatimizning oliy mukofoti — "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan taqdirlandilar. Ko'plab shoir va yozuvchilar yuksak saviyadagi badiiy asarlar uchun o'tkazilgan tanlovlarning sovrindorlari bo'ldilar.

Istiqlol yillarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jarayonida teatr san'ati ham rivojlandi. 1993 -yilda foydalanishga topshirilgan "Turkiston" san'at saroyi Vatanimizning va xorijlik atoqli teatr arboblarning, ijodiy guruhlarining sahna asarlari namoyish etiladigan dargohga aylandi. Andijonda jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar teatri davlat tasarrufiga olinib, Abbos Bakirov nomli yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi. Respublika Prezidentining 1995-yil 20-oktabrdagi "O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 1998- yil 26- martdagi "O'zbekistonda teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi farmonlari asosida teatrlar davlat budjeti hisobiga qo'llab-quvvatlandi. Farmonga binoan Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida 1998-yilda "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Birlashma teatr jamoalariga xalqimizning boy ma'naviy olamini, uning madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini uyg'otuvchi spektakllar yaratishda, iste'dodli yoshlarni teatrga jalb qilishda, teatrlarning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlashda, ijodiy xodimlarni ijtimoiy himoya qilishda ko'maklashdi.

Bugungi kunda sohaga qaratilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlik namunasini yuqorida bir qator misollar bilan keltirib o'ttik. Bu kabi sohani rivojlantirishga doir chora-tadbirlar hamda yuksak e'tibor va imzolangan farmon, qarorlarning ijrosini ta'minlash doirasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan sohaga

qaratilayotgan g'amxo'rlik va imkoniyatlar yaqin kelajakda tub o'zgarishlarga olib keladi va o'z samarasini ko'rsatadi desak xato bo'lmaydi. Bunday yuksak e'tibor hamda ishonchni his qilgan holda biz kabi yosh yetishib chiqadigan mutaxassislar hamda soha xodimlari ham yanada shijoat bilan ishlashi, madaniyat va san'at sohasi ravnaqiga bor kuch va salohiyatini safarbar etishi lozimdir. Shunday ekan, Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Yangi O'zbekiston jahon maydonida kuchli, salohiyatli, munosib obro'-e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylanadi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. - Toshkent: 2021. O'qituvchi. - B. 184.
2. To'ychiyeva S. Madaniyat va san'atimiz rivojidadagi zarsahifalar // Yangi O'zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2022. - B. 6.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgustdagi "Madaniyat va san'at sohasida davlatxususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shartsharoitlar yaratish chora-tadbirlari To'g'risida"gi PQ-3892-sonli qarori 2017 yil 16 oktyabr, PQ-3325- son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida, 2018 yil 1 avgust, PQ-3892-son. 5. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot -pirovard maqsadimiz. T,8. -Toshkent: O'zbekiston, 2000.
6. Uktamovna, M. M. (2023). Enhancing Vocabulary Acquisition in B2 Level Students through Diverse Exercise Modalities and Reading Activities. Genius Repository, 26, 73-74.
7. Mamadjanova, M. (2023, December). SEMANTIC CLASSIFICATION OF EPITHETS IN THE ENGLISH LANGUAGE. In Fergana state university conference (pp. 88-88).
8. Uktamovna, M. M. (2023). Syntactic-Structural Classification of Epithet in the English Language". American Journal of Science on Integration and Human Development (2993-2750), 1(10), 60-62.
9. Mamadjanova, M. U., & qizi Malikova, G. X. (2023). HOW ENGLISH BECOME GLOBAL LANGUAGE: HISTORICAL OVERVIEW. Educational Research in Universal Sciences, 2(17), 888-892.
10. Mamadjanova, M. U., & qizi Xomidova, M. S. (2023). GRAMMAR TRANSLATION METHOD: EXPLORING ADVANTAGES AND DISAVANTAGES. Educational Research in Universal Sciences, 2(17), 309-311.
11. Uktamovna, M. M., & Oybekovna, Z. F. (2023). UNRAVELING THE CONNOTATIVE AND DENOTATIVE MEANINGS OF WORDS. Научный Фокус, 1(8), 640-642.
12. Tojiboyeva, M. S. Q. (2022). SEMANTIC DIVISION OF TOURISM TERMINOLOGY. Scientific progress, 3(6), 116-119.